



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

MODAL SO‘ZLARNING PRAGMATIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Xaytboyeva Muxlisa Muxtor qizi,
Urganch davlat universiteti
Filologiya va san’at fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola o‘zbek tili modal so‘zlarining antroposentrik tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, asosan, modal so‘zlarning pragmatik va kognitiv xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: modal so‘zlar, antroposentrik tilshunoslik, pragmatika, kognitiv tilshunoslik, kommunikativ maqsad, nutqiy muloqot.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalolingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi. Taniqli o‘zbek tilshunosi, prof. N.Mahmudovning tilshunoslikda antroposentrik paradigmanning shakllanishi haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Tilning ana shunday obektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganiday, inson aqlini, insonning o‘ziday, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi.¹

Asosiy qism. Pragmalolingvistikani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratish va uning o‘rganish obyekti, predmetini aniqlash uchun lisoniy birliklarning turli kommunikativ muhitda pragmatik qiymati, “bahosi”, mundarijasining namoyon bo‘lishini ta’minlovchi omillarni izlamoq darkor². Modomiki, modal so‘zlar

¹ Mahmudov. N. Тилнинг мукаммал тадқиқи йулларини излаб...// Узбек тили ва адабиёти - Тошкент, 2012 – № 5. -Б. 6-7.

² Ko‘rsatilgan manba.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

soʻzlovchining oʻzi ifodalayotgan fikriga munosabatini bildirar ekan, nutqiy jarayonda ushbu fikriga qaratilgan individual baho ottenkasi modal soʻzlarning pragmatik qiymatini belgilab beradi. *Haqiqatdan, shaksiz, shubhasiz* kabi fikrning tasdiqʻini bildiruvchi modal soʻzlar yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, “bir mazmunni turli nutqiy vaziyatlarda ifodalash uchun oʻzining asosiy grammatik maʼnosiga koʻra sinonimik, ayni paytda, qoʻshimcha ekspressiv maʼno va ekspressiv- emotsional ottenkaga ega boʻlgan turli variantlardan foydalaniladi”³.

Gap sintaktik yaxlitlik, bu uning grammatik shakllanganligi, tarkibiy uzvlari bir butunlik holiga kelganligi bilan izohlanadi. Demak, gapda bir necha jihat birlashgan boʻladi. Birinchi jihat gapning moddiy qobigʻi, bu uni tashkil etuvchi soʻz va grammatik shakllar. Masalan, aksariyat gapda kesimlik koʻrsatkichlari bilan shakllangan atov birligi (kesim)ning boʻlishi shart. Ikkinchi jihat ana shu moddiy qobiqqa singdirilgan aqliy mahsul – fikr – axborot. Uchinchi jihat esa soʻzlovchining voqelikka munosabati, nutq vaziyati. Bu uch jihat nutqda uchlikni – sintaktika, semantika va pragmatika birligini tashkil etadi.

Keyingi yillarda *pragmatika* atamasini qoʻllamaydigan tilshunos qariyb qolmadi. Natijada, oʻziga xos pragmatik “fetishizm” holati paydo boʻlib, bajarilgan tadqiqotlarda atamaning qoʻllanishidan tashqari, uning mazmuniga oid biror bir maʼlumotni topish qiyinlashib bormoqda. Lozim boʻlsa, boʻlmasa atama qoʻllanaversa, uning negizida turgan tushunchaning siyqalanishiga olib kelinishi turgan gap. Lisoniy birliklar pragmatik xususiyatlari, ularning pragmalinglevistik tahlili haqida gapirishdan oldin “Pragmalinglevistika nima bilan shugʻullanadi?”, “Uning tadqiqot obekti va predmeti nimadan iborat?”, “Pragmatikaning asosiy tushunchalari, tamoyillari qaysilar?” kabi savollarga javob izlashga majburmiz. J.Layonz tilshunoslarning 12-xalqaro kongressida (Vena, 1977) pragmalinglevistikaning predmetini aniqlash va uning taʼrifini berishga harakat qildi. “Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi soʻzlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qoʻllanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning

³ Морен М.К., Тетеревникова Н.Н. Стилистика современного французского языка. – Москва: Высшая школа, 1980. – с.221.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi, deyish demakdir⁴". "Sabab-motiv-maqсад" zanjiri nutqiy faoliyat rejasini shakllantiradi va uning voqelanishini ta'minlaydi. Pragmalingvistik tadqiqotlar ham bundan mustasno emas. Nutqiy harakatlar ijrosi negizidagi propozitsiya mazmuni va kommunikativ maqsadni namoyon qilish (illokutsiya) munosabatini o'rgangan J.Katts pragmatika predmetini Chomskiy ta'limotidagi lisoniy qobiliyat va nutqiy ijro, faollik qarama-qarshiligida ko'radi. Uningcha, pragmatik nazariya gaplarning ma'nosini ma'lum muhitda (kontekstda) talaffuziga binoan chegaralash imkonini yaratadi. Lisoniy faoliyatning yuzaga kelishida sotsial muhit, muloqot vaziyati muhim rol o'ynaydi va shakllanayotgan birlikning mazmuni matn yoki kontekstda namoyon bo'ladi, aniqlanadi. Pragmalingvistik tadqiqotlarning predmetini nimalar tashkil qilmog'i darkorligi masalasi ham o'z dolzarbligini hanuz saqlab kelyapti⁵. Ana shunday tadqiqot predmeti sifatida biz tadqiq qilayotgan modal so'zlarni aytishimiz mumkin. Ma'lumki, muloqot so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, uchrashish, ko'rishish; musobaha ma'nolarini anglatadi⁶. Ayrim manbalarda muloqot termini o'rnida nutqiy aloqa-aralashuv ma'nosidagi kommunikatsiya termini ishlatiladi. Jumladan, R.O.Yakobson kommunikatsiya terminini nutqiy muloqot ma'nosida ishlatadi. Uning fikricha, olimlar kommunikatsiyani turli jarayonlarni qamrab oluvchi uch darajada tavsiflashadi. Quyi chegara nutqiy axborotniuzatishga asoslangan kommunikatsiya hodisasini qamrab oladi, o'rta chegara axborot uzatishni til va tildan tashqari vositalar orqali amalga oshiradigan kommunikatsiya jarayonini qamrab oladi; yuqori chegara barcha ijtimoiy kommunikatsiya jarayonini qamrab oladi. Birinchi kommunikatsiya jarayoni lingvistika tomonidan, ikkinchisi semiotika, uchinchi kommunikatsiya jarayoni esa muloqot nazariyasida o'rganiladi⁷. Muloqot jarayonida ishtirokchilarining ijtimoiy sifatlariga ko'ra modal so'zlarning qo'llanilish doirasi:

⁴ Vosiljonov A. Pragmalingvistika va uning tahliliy shakllanish tarixi. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

⁵ Ko'rsatilgan manba.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 2-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 2007. –Б. 636.

⁷ Якобсон Р.О. Речевая коммуникация / Якобсон Р.О. Избранные работы. –М.: Прогресс, 1985. –С. 306-319.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

- Ijtimoiy mansublik
- Suhbatdoshlarning tanish, notanishligi
- Nutqiy harakat sharoiti
- Muloqotchilarning yoshi
- Ularning jinsi va xarakteri

Nutqiy muloqot shaxslararo munosabatni aks ettiruvchi muloqot turi, kishilarning kommunikativ maqsadini amalga oshirish usuli, bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi verbal va noverbal tarkibiy qismlar ishtirokida tuzilgan nutqiy aktlar jamlanmasidir. Nutqiy ta'sir ko'rsatish va uning natijasiga erishishga mo'ljallangan nutqiy muloqot turida so'zlovchi nutqi perlokutiv vazifa bajarishga yo'naltiriladi. So'zlovchi muloqotdoshiga nutqiy ta'sir ko'rsatib, uni biror bir xatti-harakatni bajarishiga turtki beradi⁸.

Sh.Iskandarova jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo'llanilishi zarur bo'lgan yoki talab etiladigan, suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish va uni kerakli ohangda olib borish uchun ishlatiladigan turg'un muloqot qoliplarining maxsus milliy kichik tizimlarini nutqiy odat deb va uni nutq madaniyatidan farqlash lozimligini ta'qidlab, shunday yozadi: "Nutq madaniyati lisoniy bilim va malakalar yig'indisi bo'lsa, nutqiy odat ma'lum millat vakillarining atrof-muhit, sharoitlar, urf-odatlar ta'sirida shakllangan bo'ladi. Nutq madaniyatiga ega bo'lish uchun shaxs o'z fikrini to'g'ri, ifodali va ta'sirchan holda yetkazish mahoratiga-sanoatiga ega bo'lmog'i talab qilinsa, nutqiy odat birliklarini o'rinli qo'llash uchun o'zaro muloqot ishtirokchilarining ma'lum mahoratga ega bo'lishi muhim emas⁹.

Til sathlardan iborat. Til yaxlit vujud ekan, bu sathlar gapning asosiy vazifasi bo'lgan axborot uzatish va qabul qilish jarayonida butunlik sifatida ishtirok etishi lozim.

Modal so'zlarning har qanday sharoitda namoyon bo'ladigan belgilari ularning ontologik va vazifaviy (funksional) xususiyatlari namunasidir. Til mexanizmlarida faqat tafakkur strukturasi o'z holicha emas, balki bu strukturaning belgilar ko'rinishida qanday namoyon bo'lishi masalasi bilan birga qaraladi. Shunday ekan,

⁸ Narxodjayeva X. Rasmiy muloqotda lingvomadaniy xususiyatlar. // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar. – B.125.

⁹ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Самарканд, 1993.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

kognitiv tilshunoslik doirasida nutqning shakllanishi va namoyon bo'lishidagi "mental" xususiyatlar ham o'rganiladi. Kognitiv tilshunoslik tarkibida olib boriladigan izlanishlar yaxlit holda insonga xos bo'lgan kognitiv mexanizmlar hamda bu mexanizmlarni kategoriyalashtirish va konseptuallashtirish masalalarini o'rganish imkonini beradi.

Kognitiv tilshunoslik – tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi sohadir. Z.Demyankov fikriga ko'ra, unda til strukturalarining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi subektlar so'zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi¹⁰. Axborotni uzatishda va qayta ishlashda modal so'zlarning ahamiyati katta. Bu kategoriyada modal so'zlarni quyidagi guruhlariga ajratib tahlil qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

Shaxs ruhiy holatini ifodalovchi modal so'zlar:

- Nahotki, men shu darajada qadrsiz bo'lsam;
- To'g'risi, bo'layotgan hodisalar jonimga tegib ketdi;
- Afsuski, inson xatolarini kech anglaydi.
- Sen ham traktor haydashga majbursan, xullas, otang traktor haydab, kimdandir kam bo'lmagan.

` Shaxs idrokini faollashtiruvchi modal so'zlar:

- Haqiqatdan ham, ertaga havo juda sovuq bo'lar ekan;
- Chamasi, bu ishlar bugun yakunlanmasa kerak;
- Darhaqiqat, Xorazm lazgisidek kuy butun dunyoda yo'q;
- Demak, sen ham o'g'riga sherik bo'lgansan;
- Binobarin, ilimli bo'lish porloq kelajak sari keng imkoniyatdir.

Xulosa

O'zbek tilidagi modal so'zlarni pragmatik va kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilish kishilarning nutqiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, fikrni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini, madaniy nutq malakalarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

¹⁰ Qarang: Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2013. – B.11.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

Shuningdek, muloqotning maqsadga muvofiq kechishini, shaxslararo muloqotda ifodalanayotgan fikrga munosabat modal soʻzlar asosida oydinlashtirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vosiljonov A. Pragmalingvistika va uning tahliliy shakllanish tarixi. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337.
2. Narxodjayeva X. Rasmiy muloqotda lingvomadaniy xususiyatlar. // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar. – B.125.
3. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2013. – B.11.
4. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. -Самарқанд, 1993.
5. Махмудов. Н Тилнинг мукаммал тадқиқи йулларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти - Тошкент, 2012 – № 5. -Б. 6-7.
6. Морен М.К., Тетеревникова Н.Н. Стилистика современного французского языка. – Москва: Высшая школа, 1980. – с.221.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 2-жилд.–Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, –2007. –Б. 636.
8. Якобсон Р.О. Речевая коммуникация / Якобсон Р.О. Избранные работы. –М.: Прогресс, 1985. –С. 306-319.